OLIY TA’LIMDA RANGTASVIRGA OID BADIIY-KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH VA UNI AMALIYOTGA TARG’IB ETISH

Ilmiy izlanuvchi

Zikrillayeva Visola Hamrayevna

Tel:+998 914050906

Elektron manzil: zikrillayevavisola@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at darslarida o’quvchi yoshlar va talabalarning badiiy- estetik, badiiy-kasbiy mahorat, umummadaniy kompitensiyalarini shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish, amaliyotga targ’ib etish va takomillashtirish haqida so’z boradi. Maqolada talabalarda rangtasvirga oid badiiy-kasbiy kompitensiyalarini shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’z va iboralar: ilmiy-ijodiy meros, badiiy-kasbiy kompetensiya, metodik tizim, zamonaviy innavatsion talablar, axborot-kommunikativ texnologiyalar, dedaktik imkoniyat

Аннотация

В данной статье говорится о некоторых проблемах системы формирования художественно-эстетических, художественно-профессиональных навыков, общекультурных компетенций студентов на занятиях живописи в системе высшего образования, их популяризации и совершенствовании на практике. В статье рассмотрены содержание, формы, методы и средства совершенствования методической системы формирования художественно-профессиональных компетенций студентов в живописи.

Ключевые слова и фразы: научно-творческое наследие, художественно-профессиональная компетентность, методическая система,

современные инновационные требования, информационно-коммуникационные технологии, дидактическая возможность

Annotation

This article talks about the development of a methodical system for the formation of artistic-aesthetic, artistic-professional skills, general cultural competences of young students and students in higher education system, and promotion and improvement in practice. The article detailed the content, form, methods and means of improving the methodical system of forming the artistic and professional competences of students in painting.

Keywords and phrases: scientific and creative heritage, artistic and professional competence, methodological system, modern innovative requirements, information and communication technologies, didactic opportunity

O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida tasviriy faoliyatni bosqich-ma bosqich rivojlantirish, o’quvchi va talabalarning badiiy ijodkorligini istiqbolli shakllantirish, mazkur jarayonga ko’p asrlar davomida shakllanib kelgan “ustoz-shogird” badiiy an’analardan, jahon buyuk pedagog rassomlari Leanardo Da Vinchi, Albrext Dyurer, Pavel Chistyakov, Leon Battista Alberti, Chennino-Chennini kabi ilmiy-ijodiy meroslaridan unumli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda, boshqa mamlakatlar qatorida maktab va oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at darslarida o’quvchi yoshlar va talabalarning badiiy- estetik, badiiy-kasbiy mahorat, umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish va amaliyotga targ’ib etish va takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan oliy ta’lim tizimi oldida qo’yilgan davlat ahamiyatiga ega bo’lgan vazifalar keng qamrovda olib ta’lim tizimini isloh qilish, barcha qirralarini takomillashtirish, jumladan metodik tizimini doimiy ravishda yangilash, zamonaviy innavatsion talablarga moslash, “Ustoz-shogird” milliy an’analarimizga tayangan holda tuzish ilmiy tadqiqotlarni tubdan yangilatish va

zamonaviy usullarga tayanib o'tkazishni taqazo etadi. San'atga doir fanlarni o'qitish jarayonida rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, kompazitsya kabi bo'lajak pedagog-rassomlar uchun shakllantiruvchi o'quv predmetlar bo'yicha savodxonlikni tarbiyalash, dizayn va mediasan'atda chizma –tasviriy modellar, axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish, har qaysi nooddiy fanlar bo'yicha kompitensiyalarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'at fanini o'qitishda o'quvchilarning tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarini shakllantirishning tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari bevosita tasviriy san'at asarlarini kommunikativ funksiyalarinini ham e'tiborga olishni taqozo etadi. [1,2-b] Bugungi yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan qator islohotlar boshqa fanlarni o'qitish barobarida tasviriy san'at o'quv dasturi va predmetini modernizatsya qilishni ham taqozo etadi. Darslarni optimal darajada loyihalash, ularning monitoringini olib borish juda ko'p jihatdan fanlarni o'qitishda, shu jumladan, "Tasviriy san'at" o'quv fanini o'qitishni ham takomillashtirishga olib keladi. Takomillashtirish tadbirlarini asosiy maqsadi, shubhasiz, o'quvchilarda sohaga oid o'quv kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ma'lumki, kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llash imkoniyatidir. Bu tushuncha, albatta, o'quvchilarda tasviriy san'at sohasida ham tegishli kompetensiyalar shakllantirish va rivojlantirishga ta'luqlidir va albatta o'quvchilarda tasviriy san'atga oid kompetensiyalarni shakllantirish ko'p tomonlama pedagoglarning badiiy-kasbiy tayyorgarligiga , badiiy va pedagogik mahoratlariga bog'liqdir.[2,5-b]

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Respublikamizda tasviriy san'at ta'limini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish, o'qitishning interfaol va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga kata ahamiyat qaratishmoqda. "Ustoz-shogird" va badiiy ta'lim an'analarini saqlagan holda o'qitishning ilg'or usullarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga ijodiy ustaxonalar faoliyatini tadbiq etish, tasviriy san'at

yo'nalishlarida (dastgohli, mahobatli, miniatura, haykaltaroshlik) faoliyat faoliyat olib borayotgan iste'dodli ijodkorlarni saralab olish, ularning estetik saviyasi va mahoratini yuksaltirish"[1] alohida ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa tasviriy san'at sohasida kadrlar tayyorlash, yuqori malakali pedagog-rassomlarni tarbiyalash, ularning ijodiy harakterdagi fanlardan jumladan asosiy fan sifatida qabul qilingan rangtasvir faniga oid badiiy-kasbiy kompitensiyalarni shakllantirishning metodik turlarini takomillashtirish, amalga oshirish nazorat modelini va pedagogik shart sharoitlarini, fanning dedaktik imkoniyatlarini tadqiq etishni taqazo etadi.

Respublika olimlaridan S.Abdirasalov, N.Abdullayev, S.Abdullayev, B.Baymetov, S.Bulatov, A.Inog'omov, J.Majidov, O'.Nurtoyev, N.Oydinov, B.Oripov, R.Rajabov, D.Sobirova, A.Sulaymonov, N.Toirov, A.Turdaliyev, S.Fayzullin, R.Xayrov, O.Xudoyorova, N.Yuldashev, K.G'ulomov, Q.Qosimov , B.Qo'chqorov, R.Xasanov, S.SHovdirov, X.Egamovlar tasviriy san'at ta'limini mazmunini takomillashtirish, badiiy ta'lim va tarbiyani tashkil etish, talabalarda badiiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, tasviriy san'at darslarini samaradorligini oshirish, tasviriy san'at o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir bir qator tadqiqotlar olib borishgan.

Shular bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasi a'zolari, akademigi M.Nabiyev, R.Xudoyberganov, N.Normatov, A.Mirzayev, Sh.Umarbekov, A.Xakimov va boshqa bir qator rassom-pedagog talabalarda rangtasvirga oid badiiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy risola, o'quv qo'llanmalar yaratildi. [3, 9-b]

Biroq, talabalarda rangtasvirga oid badiiy-kasbiy kompitensiyalarini shakllantirish masalalari, metodik tizimini takomillashtirish muammosi maqsadli tadqiq etilmagan. Bu esa, kompitensiyaviy yondashuv asosida talabalarga rangtasvirga oid badiiy-kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Mashhur rus olimi, pedagog-rassom N.M.Rostostev, o'quv jarayonida o'qituvchilarning rolini baholashda quyidagi dolzarb fikrini bildiradi: "Maktabda

tasviriy san’at fani, boshqa o’quv fanlaridek, o’zining spesifik xususiyatlari, vazifalari va o’qitishning tizimli kursiga ega. Bolalar o’qituvchi yordamida eng avvalo rasm darslarida kerakli bilim va ko’nikmalarni o’zlashtiradi” [4,163-b]

Shundan kelib chiqib, quyidagi maqsad va vazifalarni yechish zarurligi yuzaga kelgan. Talabalarda rangtasvirga oid badiiy-kasbiy kompitensiyalarini shakllantirishning metodik tizimini shakllantirishga doir taklif va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Vazifalar:

- Talabalarda rangtasvirga oid badiiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tuzilmasi (strukturasi) va komponentlarini aniqlash;
- Rangtasvirga oid badiiy-kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga didaktik talablari va ularning didaktik imkoniyatlarini tahlil etish;

Talabalarda rangtasvirga oid badiiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning modelini ishlab chiqish va shu asosda metodik tizimini takomillashtirish bo’yicha takliflar tayyorlash;

Rangtasvirga oid zamonaviy tushunchalar va terminlar (kolorit kompozitsya, rang va tus, kompozitsion markaz va h.k) tahlili va qisqacha izohli lug’at;

---

[1]O’bekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror|Qonun ma’lumotlari milliy bazasi. 22.04.2020y. 07\20\4688\0475-son.

- Glossariy tuzish: metodikasi va tadqiqot usullariga ilmiy-metodik manbalar, maxsus adabiyotlar qiyosiy tanqidiy tahlili, kuzatish, test, intervyu, pedagog eksperement, o’quv jarayonining monitoringi, rantasvir ishlari, matematik-statistik tahlili usullaridan foydalanish ko’zda tutilgan. [5, 9-b]

Xulosa qilib, aytadigan bo’lsak, maqolani yozish mobaynida ta’lim tizimida talabalarda rangtasvirga oid badiiy-kasbiy kompetensiyalarning metodik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Rangtasvir faniga oid badiiy-kasbiy

kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish, amalga oshirish, nazariy modelini va pedagogik shart sharoitlarini, fanning dedaktik imkoniyatlarini tadqiq etishning zamonaviy badiiy pedagogik ta'limning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Sharipov, B.Boymetov "Oliy pedagogika ta'limda talabalarga inson qiyofasini amaliy tasvirlash jarayonida ijodiy kompitensiyalarini rivojlantirish" //Academic research in Educational sciences.-2021

2.Абдуллаев С. Ф. Восточная миниатюра в системе высшего художественно-педагогического образования: История, теория, методика //Москва: СФ Абдуллаев. – 1996.

3.Абдуллаев С. Ф., Муродова М. Х. Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению //Universum: общественные науки. – 2022. – №. 2 (81). – С. 21-24.

4. Н.Ростовцев. Методика преподавания изобразительного исскуства в школе.-м.:изд.60 «Агар», 2000г.-234с.

5.Shovdirov.S.A. "O'quvchilarda tasviriy savodxonlikka pid o'quv kompetensiyalarni shaklllantirishning metodik tizimini takomillashtirish". Ped. Fanlari bo'yicha falsafa dokt. (phd) dis. Avtoreferati. Samarqand, 2022.-18.